

INGLIZ VA O‘ZBEK ENIGMALARIDA TABIAT, HAYVONOT, ODAM VA BUYUM KONSEPTLARINING IFODALANISHI

To‘xtasinova Durdona Tolibjon qizi

Ingliz tili fani o‘qituvchisi,

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

E-mail: tukhtasinovadurdona@gmail.com Tel: 933738395

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20770817>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek topishmoqlarda uchraydigan tabiat, hayvonot, odam va buyum konseptlarining ifodalanishi va ularning lingvokulturologik xususiyatlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, har ikkala tilda ushbu konseptlarning farqli va o‘xshash jihatlari ham tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: topishmoq, tabiat konsepti, odam konsepti, hayvon konsepti, buyum konsepti, konseptual metafora, lingvokulturologik xususiyatlar.

ВЫРАЖЕНИЕ ПОНЯТИЙ ПРИРОДЫ, ЖИВОТНОГО, ЧЕЛОВЕКА И ПРЕДМЕТА В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКИСТАНСКИХ ЗАГАДКАХ

Тухтасинова Дурдона Толибжон кизи

Преподаватель английского языка,

Андижанский филиал Кокандского университета

E-mail: tukhtasinovadurdona@gmail.com Тел.: 933738395

Примечание: В данной статье рассматривается выражение понятий природы, животного, человека и предмета в английских и узбекских загадках и их лингвокультурные особенности. Также анализируются различия и сходства этих понятий в обоих языках.

Ключевые слова: загадка, понятие природы, понятие человека, понятие животного, понятие предмета, концептуальная метафора, лингвокультурные особенности.

EXPRESSION OF THE CONCEPTS OF NATURE, ANIMAL, HUMAN AND OBJECT IN ENGLISH AND UZBEKISTAN PUZZLES

Tukhtasinova Durdona Tolibjon qizi

Teacher of English,

Andijan branch of Kokand University

E-mail: tukhtasinovadurdona@gmail.com Tel: 933738395

Annotation: This article discusses the expression of the concepts of nature, animal, human and object in English and Uzbek riddles and their linguocultural characteristics. Also, the differences and similarities of these concepts in both languages are analyzed

Keywords: riddle, nature concept, human concept, animal concept, object concept, conceptual metaphor, linguocultural characteristics.

Annotation: This article discusses the expression of the concepts of nature, animal, human and object in English and Uzbek riddles and their linguocultural characteristics. Also, the differences and similarities of these concepts in both languages are analyzed

Keywords: riddle, nature concept, human concept, animal concept, object concept, conceptual metaphor, linguocultural characteristics.

Topishmoqlar xalqning olam haqidagi tasavvurlarini, tafakkur tarzini va madaniy tajribasini o'zida mujassamlashtiruvchi eng qadimiy folklor janrlaridan biridir. Ular insonning atrof-muhitni kuzatishi, voqelikni obrazli idrok etishi va uni ramziy shaklda ifodalashi natijasida yuzaga kelgan. Topishmoqlarda muayyan predmet yoki hodisa yashirin tarzda tavsiflanadi va tinglovchi uni o'z bilimlari hamda tajribasi asosida aniqlaydi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan topishmoqlar konseptlarning verbal ifodasi hisoblanadi. Konsept inson ongida shakllangan bilimlar, tasavvurlar va madaniy tajribaning mental birligi bo'lib, til vositasida namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek topishmoqlarida eng faol uchraydigan konseptlar qatoriga tabiat, hayvonot, odam va buyum konseptlari kiradi. Mazkur konseptlar har ikki xalqning dunyoqarashi, yashash muhiti va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Kognitiv tilshunoslikda konsept inson ongida mavjud bo'lgan bilimlarning mental modeli sifatida talqin qilinadi. Konseptlar orqali inson voqelikni kategoriyalarga ajratadi va tushunadi. Masalan: quyosh konsepti, daraxt konsepti, ot konsepti, inson konsepti. Topishmoqlar aynan mana shu konseptlarni obrazli shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Konsept tarkibida bilim, assotsiatsiya, madaniy tajriba, emotsional bahomujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun bir xil obyekt turli xalqlarda turlicha konseptualizatsiya qilinishi mumkin. Ikki tilda ham bir nechta konseptlarni topishmoqlarda ifodalanishini o'rganib chiqamiz. Avvalo *tabiat* konseptining ifodalanishini o'zbek topishmoqlarida tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topdik. O'zbek xalqining turmush tarzi, yashash muhiti azaldan tabiat bilan chambarchas bog'liq hayot kechirgan. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanganligi sababli tabiat hodisalari topishmoqlarda keng aks etgan. Misol qilib quyosh konseptini oladigan bo'lsak:

"Oltin sandiq ochildi, Ichidan nur sochildi"

Javob: Quyosh

Bu topishmoqda quyosh -yorug'lik Manbai, hayot timsoli, qimmatbaho boylik sifatida tasvirlangan. "Oltin" metaforasi o'zbek xalqining quyoshga nisbatan ijobiy munosabatini ifodalaydi.

Oy konseptiga ham bitta namuna ko'radigan bo'lsak:

"Bir patir non, Olamga ayon"

Javob: Oy

Bu yerda oy milliy madaniyatga xos "patir non" orqali tasvirlanmoqda va bu obraz o'zbek xalqining kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq. Tabiatni ifodalovchi yulduz konsepti ham o'zbek topishmoqlari orasida uchrab turadi:

"Ko'k gilamda oltin dona"

Javob: Yulduz.

Bu topishmoqda osmon gilamga, yulduz esa donaga qiyoslangan. Gilam atamasi ham milliy mentalitetimizda azaldan asosiy predmet sifatida qaralgan. To'y marosimlarida yoshi kattalar hadya sifatida gilam olib borishi – bu uning qandaydur ma'noda obro'sini va hurmatini ifodalab kelgan.

Ingliz folkloriga nazar soladigan bo'lsak, ularning topishmoqlarida tabiat konsepti keng uchraydi. Bunga asosiy sabab deb, avval ta'kidlaganimizdek, ularning hududiy jihatdan joylashi ya'ni geografik tuzilishini olishimiz mumkin.

Ingliz folklorida ham tabiat muhim o‘rin tutadi, biroq unda abstraktlik va mantiqiylik ko‘proq kuzatiladi.

Sun konseptiga ham quyidagi topishmoqni namuna sifatida olamiz:

“I rise every morning but never climb a ladder. What am I?”

Javob: The Sun

Bu topishmoqda quyosh harakat orqali ifodalanmoqda ya‘ni har tong ko‘tarilishini va hech qachon narvondan foydalanmasligini aytib o‘tmoqda.

“What falls but never gets hurt?”

Javob: Rain

Bu yerda yomg‘ir ham harakat xususiyati asosida tasvirlangan. Bu yerda *fall* so‘zini ma’nolariga ham e‘tibor berish talab qilinadi. Bilamizki, ingliz tilida bir so‘z bir necha ma’noda keladi. Bu yerda *yiqliladi* deb tarjima qilsak, topuvchi javobni aniqlash uchun ko‘proq izlanishiga sabab bo‘ladi va xatto yiroqlashib ketishi ham mumkin.

Wind konsepti

“You hear me but cannot see me. What am I?”

Javob: Wind

Shamolning sezilishi, ammo ko‘rinmasligi asosiy belgi sifatida olinadi.

Tabiat konseptining qiyosiy tahlili

O‘zbek topishmoqlarida tabiat poetiklashtiriladi, tabiat insonlashtiriladi, estetik obrazlar ustun. Ingliz topishmoqlarida mantiqiy tavsif ustun, funksional belgilar, ko‘proq, abstrakt fikrlash kuchliroq.

Hayvonot konseptining ifodalanishi

O‘zbek topishmoqlarida hayvonot konsepti

Hayvonlar xalq hayotining muhim qismi bo‘lganligi sababli topishmoqlarda keng qo‘llaniladi.

Ot, tuya, qo‘y konsepti mashhur:

“Yelday uchadi, qanoti yo‘q”

Javob: Ot

“Bo‘yni uzun, yuki og‘ir”

Javob: Tuya

Ingliz topishmoqlarida hayvonot konsepti

Horse, bird, bee konsepti ko‘p uchraydi:

“What has four legs and runs fast?”

Javob: Horse

What has wings but isn't an airplane?

Javob: Bird

“I make honey but I'm not a cook. What am I?”

Javob: Bee

Hayvonot konseptining qiyosiy tahlili

O‘zbek topishmoqlarida ot, tuya, qo‘y, echki kabi chorvachilikka oid obrazlar ustun. Ingliz topishmoqlarida, qushlar, asalarilar, uy hayvonlari ko‘proq uchraydi. Bu holat ikki xalqning tarixiy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq.

Odam konseptining ifodalanishi

O‘zbek topishmoqlarida odam konsepti uning tana a‘zolari bilan tasvirlanadi.

Inson tanasi bilan bog‘liq topishmoqlar juda ko‘p.

Ko‘z, tish, til konsepti

“Ikki aka-uka bir-birini ko‘rmaydi”

Javob: Ko‘zlar

“Oq qo‘ylar qizil qo‘rada turadi”

Javob: Tishlar

“O‘zi bir qarich, dunyoni kezadi”

Javob: Til

Ingliz topishmoqlarida odam konsepti

Teeth, eye, teeth konsepti

“Thirty white horses on a red hill”

Javob: Teeth

“What can cry but has no feelings?”

Javob: Eye

“I follow you everywhere but never speak”

Javob: Shadow

Odam konseptining qiyosiy tahlili

Har ikkala madaniyatda ko‘z, quloq, til, tish eng faol konseptlar hisoblanadi. Farqi shundaki, o‘zbek topishmoqlarida inson tanasi qishloq hayotiga oid obrazlar bilan izohlanadi. Ingliz topishmoqlarida esa metafora va abstrakt assotsiatsiyalar ko‘proq uchraydi.

O‘zbek topishmoqlarida buyum konsepti

Elak, igna, qozon konsepti

“Ko‘zi mingta, o‘zi bitta”

Javob: Elak

“O‘zi bir qarich, Soqoli qirq qarich”

Javob: Igna

“Qorni katta, og‘zi tor”

Javob: Qozon

Bu buyumlar xalqning kundalik turmushi bilan bog‘liq.

Ingliz topishmoqlarida buyum konsepti

Clock, piano, book konsepti

“What has hands but cannot clap?”

Javob: Clock

“What has keys but can't open doors?”

Javob: Piano

“I have many pages but no voice”

Javob: Book

Bu topishmoqlar ingliz jamiyatida ilm-fan va texnologiyaning muhimligini ko‘rsatadi.

Buyum konseptining qiyosiy tahlili

O‘zbek topishmoqlarida qozon, elak, tandir, o‘roq, ketmon kabi milliy-maishiy predmetlar ustun. Ingliz topishmoqlarida *piano, clock, book, telephone* kabi texnologik va madaniy obyektlar ko‘proq uchraydi.

Konseptual metaforalarning o‘rni

Har ikki xalq topishmoqlarida konseptlar metafora orqali ifodalanadi. Masalan: Oy konsepti o‘zbek tilida patir non orqali ingliz tilida esa *silver coin* ga metafora usulida qiyoslangan. Tish konsepti esa oq qo‘y, ingliz topishmoqlarida *white horses* deb ifoladanishi, yulduz konsepti oltin dona yoki ingliz topishmoqlarida *diamonds*, quyosh konsepti esa oltin sandiq yoki ingliz

topishmoqlarida golden ball deb ta’rif beriladi. Bu metaforalar xalqning madaniy tajribasiga chambarchas bog‘liq.

Lingvokulturologik xususiyatlar

Topishmoqlarda konseptlarning ifodalanishi xalq mentaliteti bilan bog‘liq. O‘zbek topishmoqlari, agrar madaniyat jamoaviy dunyoqarash, tabiatga yaqinlik, milliy maishiy hayot asosida quriladi. Ingliz topishmoqlari individual tafakkur, texnologik taraqqiyot, mantiqiy mushohada, abstrakt fikrlash xususiyatlarini namoyon etadi. Ingliz va o‘zbek topishmoqlarida tabiat, hayvonot, odam va buyum konseptlari xalqning dunyoqarashi va madaniy tajribasini aks ettiruvchi asosiy konseptual birliklar hisoblanadi. O‘zbek topishmoqlarida ushbu konseptlar ko‘proq dehqonchilik, chorvachilik va milliy turmush bilan bog‘liq obrazlar orqali ifodalansa, ingliz topishmoqlarida mantiqiy tavsif, abstrakt tafakkur va texnologik madaniyat unsurlari ustunlik qiladi. Shunga qaramay, har ikki xalq topishmoqlarida tabiat, hayvonot, inson va buyumlar haqidagi universal bilimlar umumiy konseptual asosni tashkil etadi. Bu esa topishmoqlarning nafaqat folklor janri, balki xalqning kognitiv va madaniy tajribasini saqlovchi muhim lingvokulturologik manba ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 184 б.
2. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2007. – 208 б.
3. Tursunov S.M. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlash asoslari. – Toshkent: Fan ziyosi, 2022. – 320 b.
4. Аркадьев П.Н. Языковая структура и когнитивная модель. – М.: Наука, 2020. – 156 с.
5. Ахманова О.С., Тер-Мкртчян С.А. Научное определение как лингвистическая и семиотическая проблема. – М.: Наука, 1976. – 160 с.
6. Виноградов В.В. История слов. – М.: Наука, 1994. – 1138 с.
7. Adams J.Q. Report upon Weights and Measures. – Washington: Gales & Seaton, 1821. – 245 p.
8. Bailley J.S. Histoire de l’Astronomie. – Paris: Chez de Bure, 1775. – 520 p.